XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 22 - sentabr VI-64-164-7-94-K/22 Jomboy tumani hokimligi

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

Jomboy tuman hokimligining bildirish xatlari va Obodonlashtirish boshqarmasining xatlariga hamda tuman hokimligi moliya bo‘limining xulosalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Budjeti kodeksi”ning 126-moddasiga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VI–chaqiriq LXIV-sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq tadbirlarni amalga oshirish uchun 291,0 (ikki yuz to‘qson bir million) so‘m ajratilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (G‘.Burxonov)ga budjetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Ro‘ziyev)ga belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish, tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Uralov)ga hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mamatov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish topshirilsin.

3. Mazkur sessiya qarorini bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (A.Sadullayev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (S.Baxodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 22 sentabrdagi
VI-64-164-7-94-K/22-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjetning 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdori

№	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Xarajat turlari	Summasi
		Qoldiq	**291.0**
1	Tuman hokimligi	Yer uchastkalarining smeta xarajatlari uchun	76,0
2	Tuman hokimligi	Tuman hokimligining xizmat mashinalari uchun	15,0
3	Tuman hokimligi	Jomboy tumanlararo Iqtisodiy sudining 4-1401-2201/587-sonli hal qiluv qaroriga asosan	60,0
4	Tuman hokimligi	Jomboy tumanlararo Iqtisodiy sudining 4-1401-2201/294-sonli hal qiluv qaroriga asosan	50,0
5	Tuman hokimligi	Obuna xarajatlari uchun	40,0
6	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Dizel yoqilg‘isi xarid qilish uchun	50,0
		Qoldiq	**0,0**